



**Toshkent viloyati
statistika boshqarmasi**

AXBOROTNOMA
*Toshkent viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

Toshkent viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati

**2025- YIL
YANVAR-SENTABR**

Nurafshon - 2025

SO‘Z BOSHI

Toshkent viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati – Toshkent viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Toshkent viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo‘yicha Toshkent viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar birinchi marta Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2- tahrir) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT-2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-ko‘n sanoati va ochiq ko‘nlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (*ya’ni, yalpi hududiy mahsulot hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan*).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek, yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, investitsiya, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.



Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	-	yalpi hududiy mahsulot	0,0	-	katta bo‘lmagan miqdor
%	-	foiz	m.	-	marta
Mrld	-	milliard	-	-	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.	-	million	ga	-	gektar
mln. AQSh doll.	-	million AQSh dollari	t	-	tonna
kv.	-	kvadrat	dona	-	dona
km	-	kilometr	yo‘lovchi/km	-	yo‘lovchi-kilometr
m	-	metr	1), 2), 3).....	-	izohning mavjudligi
f.p.	-	foiz punkt	f.d.	-	foiz daraja



MUNDARIJA

Nomi	bet
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	8-10
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	11-17
1. Yalpi hududiy mahsulot	11-12
2. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi	13-15
3. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot	15-16
4. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi	16-17
5. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar	17
II. SANOAT VA ENERGETIKA	18-24
1. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni	18
2. Toshkent viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida	19-21
3. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	21-23
4. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	23-24
5. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar	24
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	25-42
1. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi	25
2. Toshkent viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida	25-27
3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish	27-39
4. Chorva mollari va parrandalar bosh soni	40-41
5. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar	42
IV. INVESTITSIYA VA QURILISH	43-56
1. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar	43-44
2. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati	45-46
3. Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibi	47
4. Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar	48
5. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar	49-50
6. Toshkent viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish	50-51
7. Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish ishlari	51-55
8. Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar	56



Nomi	bet
V. XIZMATLAR	57-62
1. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi	57
2. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi	58
3. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	59-61
4. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar	62
VI. TRANSPORT	63-65
1. Yuk tashish va yuk aylanmasi	63-64
2. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi	64-65
3. Uslubiy ma'lumotlar	65
VII. ISTE'MOL BOZORI	66-70
1. Chakana savdo tovar aylanmasi	66-67
2. Ulgurji savdo tovar aylanmasi	68-69
3. Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi	70
4. Tushuntirishlar	70
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	71-76
1. Tashqi savdo aylanmasi	71-72
2. Eksport hajmi	73-75
3. Import hajmi	75-76
4. Tushuntirishlar	76
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	77-80
1. Kichik tadbirkorlik subektlarining soni tahlili	77
2. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar	77
3. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	78
4. Kichik biznesning hajmi va tarmoqlardagi ulushi	78-80
5. Kichik tadbirkorlik to'g'risidagi statistika ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar	80
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	81-87
1. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari	81-85
2. Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik qarzdorligi holati	85-86
3. Korxonalar va tashkilotlarning kreditorlik qarzdorligi holati	86-87
4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha tushuntirishlar	87



Nomi	bet
XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI	88-94
1. Korxonalar va tashkilotlarning soni	88-90
2. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar	91
3. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar	92-93
4. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid tushunchalar	94
XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	95-102
1. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.	95
2. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi	96
3. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi	97
4. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi	98-101
5. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar	102
XIII. DEMOGRAFIK HOLAT	103-109
1. Asosiy demografik ko'rsatkichlar	103
2. Doimiy aholi soni	104-105
3. Tug'ilganlar va vafot etganlar	105-106
4. Nikohlar va nikohdan ajralishlar	106-107
5. Aholi migratsiyasi	107-108
6. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari	109



Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
(2025- yil yanvar-sentabr)

	<i>Mrd so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	126 761,2	107,3
Sanoat mahsuloti	118 627,9	106,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari	36 135,8	105,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	63 590,2	110,2
Qurilish ishlari	25 228,7	112,6
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	1 947,7	110,0
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	14 925,3	102,4
Chakana savdo tovar aylanmasi	29 528,5	109,9
Xizmatlar, jami	48 839,8	114,8
Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH doll.)	5 061,0	118,9
Eksport	1 527,7	105,1
Import	3 533,3	126,1
Saldo (+;-)	-2 005,6	x

**Toshkent viloyatining O‘zbekiston Respublikasi bilan
solishtirma asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari**


(2025- yil yanvar-sentabr)

	<i>O‘zbekiston Respublikasi</i>		<i>Toshkent viloyati</i>		<i>Toshkent viloyatining respublikadagi ulushi, %</i>	
	<i>Mlrd so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>	<i>Mlrd so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>	<i>2024- y. yanvar-sentabr</i>	<i>2025- y. yanvar-sentabr</i>
Yalpi ichki (hududiy) mahsulot	1 303 702,1	107,6	126 761,2	107,3	10,1	9,7
Sanoat mahsuloti	773 790,8	106,8	118 627,9	106,0	16,0	15,3
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	366 216,0	104,1	36 135,8	105,0	9,7	9,9
Asosiy kapitalga investitsiyalar	443 613,6	115,2	63 590,2	110,2	14,8	14,3
Qurilish ishlari	224 532,4	114,2	25 228,7	112,6	11,3	11,2
Chakana savdo	316 378,5	111,0	29 528,5	109,9	9,4	9,3
Bozor xizmatlari	722 166,1	114,0	48 839,8	114,8	6,7	6,8
Eksport, mln. AQSh doll.	26 683,6	133,3	1 527,7	105,1	7,3	5,7
Import, mln. AQSh doll.	33 111,0	115,6	3 533,3	126,1	9,8	10,7

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi ichki mahsulotning 9,7 foizi, sanoat mahsulotlarining 15,3 foizi, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining 9,9 foizi, chakana savdo tovar aylanmasining 9,3 foizi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 14,3 foizi, qurilish ishlari hajmining 11,2 foizi, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining 6,8 foizi, eksportning 5,7 foizi va importning 10,7 foizi Toshkent viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishda Toshkent viloyatining ishtiroki

(2025- yil yanvar-sentabr, jamiga nisbatan % da)



I. TOSHKENT VILOYATI YALPI HUDUDIY MAHSULOTI

2025- yil yanvar-sentabr*


1. Yalpi hududiy mahsulot
2. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot
3. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
4. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi
5. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

1. Yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YAHM) hajmi joriy narxlarida **126 761,2** mlrd so'mni hamda 2024- yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati **7,3 %** ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsuloti (YAIM)ning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi **9,7 %** ga yetdi.

YAHM hajmi va o'sish sur'atlari,
(yanvar-sentabr)




*) Dastlabki ma'lumotlar

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan **108,1 %** ni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – **110,0 %** va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **108,3 %** qayd etildi.

Viloyatning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksi qurilishda – **107,5 %** qayd etildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida
YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indekslari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2024- yil	2025- yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot – jami:	109 297,2	126 761,2	107,3
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	105 384,5	123 279,8	107,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	3 912,7	3 481,4	109,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	105 384,5	123 279,8	107,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18 475,7	20 897,2	104,5
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	55 683,1	65 316,7	107,0
sanoat	46 949,6	54 744,1	106,0
qurilish	8 733,5	10 572,6	112,6
Xizmatlar	31 225,7	37 065,9	109,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9 583,3	11 633,6	112,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	5 388,2	6 846,5	112,6
boshqa xizmat tarmoqlari	16 254,2	18 585,8	106,1

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **104,5 %** ni (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 17,0 %), sanoatda – **106,0 %** ni (44,4 %), qurilishda – **126,6 %** ni (8,6 %), xizmatlar sohasida – **109,1 %** ni (30,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **112,3 %** (9,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa **112,6 %** (5,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida **106,1 %** dan (15,0 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi jamiga nisbatan % da**


	2024- yil yanvar- sentabr	2025- yil yanvar- sentabr
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,4	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	2,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17,5	17,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	52,9	53,0
sanoat	44,6	44,4
qurilish	8,3	8,6
xizmatlar	29,6	30,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,1	9,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,6
boshqa xizmat tarmoqlari	15,4	15,0

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **97,3 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **2,7 %** ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi **17,0 %** ni, sanoat tarmog'i **44,4 %** ni, qurilish **8,6 %** ni va xizmatlar sohasi **30,0 %** ni tashkil qildi.

YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (yanvar-sentabr)

2024- yil



2025- yil



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, YAHM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan YAHM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 29,6 % dan 30,0 % ga oshdi. Shu bilan birga, sanoatning ulushi 52,9 % dan 53,0 % ga hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 17,5 % dan 17,0 % ga kamaydi.

3. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi **40 517,6** ming so'mni tashkil etdi, bu esa 2024- yilning mos davriga nisbatan **5,4 %** ga ko'pdir.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga YAHM hajmi **35 563,2** ming so'mni, o'sish sur'ati esa **105,7 %** ni tashkil etgan edi.

Aholi jon boshiga YAHM hajmi va o‘shish sur‘atlari (yanvar-sentabr)




Ma‘lumot uchun: Respublika bo‘yicha 2025- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi ichki mahsulot hajmi **34 483,9** ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **5,6 %** ga o‘tdi. 2024- yilning yanvar- sentabr oylarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda **29 124,8** ming so‘mni va **4,4 %** ni tashkil qilgan.

4. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik hajmi **65 908,1** mlrd so‘mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 56 551,2 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi **53,5 %** ni (2024- yilning yanvar- sentabr oylarida – 53,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi kichik korxonalar ulushining pasayishi bilan bog‘liq.

Yanvar-sentabr oylarida
kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)



5. Yalpi hududiy mahsulot bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko‘rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, YAIMga teng ko‘rsatkich hisoblanadi, ya’ni u ushbu hududning rezidentlari bo‘lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy narxlarda yalpi qo‘shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali baholashni ko‘zda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo‘yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim tarkiblari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma’lumotlarning yo‘qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni o‘ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydi.

Shu sababdan, ular O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAHM hajmini hududning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan yalpi hududiy mahsulotni baholash uchun ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi hududiy mahsulot hajmi, shuningdek, muayyan davrda hududning o‘rtacha aholisi soni bo‘yicha demografiya va mehnat statistikasi ma’lumotlaridan foydalaniladi.

III. TOSHKENT VILOYATIDA QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


2025- yil yanvar-sentabr

1. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
2. Toshkent viloyati qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida
3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish
4. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
5. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar

1. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **36 135,8** mlrd so‘mni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – **34 748,9** mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – **1 010,0** mlrd so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – **376,9** mlrd so‘mni tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi **9,9 %** ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘shish sur‘ati



2. Toshkent viloyati qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Bekobod (*4 031,7 mlrd so‘m*), Bo‘stonliq (*2 959,4 mlrd so‘m*) va Oqqo‘rg‘on (*2 537,3 mlrd so‘m*) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Nurafshon (*67,7 mlrd so‘m*), Ohangaron (*72,4 mlrd so‘m*) va Olmaliq (*89,8 mlrd so‘m*) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.


	Hajm mlrd so‘m*	O‘shish sur‘ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	36 135,8	105,0	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	67,7	104,8	0,2
Olmaliq	89,8	105,1	0,3
Angren	373	102,1	1,0
Bekobod	463,5	102,3	1,3
Ohangaron	72,4	105,9	0,2
Chirchiq	117,6	105,2	0,3
Yangiyo‘l	99,1	187,5	0,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	2 537,3	103,0	7,1
Ohangaron	1 591,9	104,9	4,4
Bekobod	4 031,7	104,0	11,2
Bo‘stonliq	2 959,4	103,4	8,3
Bo‘ka	2 023,5	104,4	5,6
Quyi Chirchiq	1 932,3	107,7	5,4
Zangiota	2 404,3	103,9	6,7
Yuqori Chirchiq	2 213,6	105,6	6,2
Qibray	1 872,9	105,4	5,2
Parkent	2 472,6	109,3	6,9
Piskent	2 050,3	103,1	5,7
O‘rta Chirchiq	2 123,4	104,2	5,9
Chinoz	2 051,9	104,6	5,7
Yangiyo‘l	2 521,2	105,7	7,0
Toshkent	1 825,7	105,2	5,1

*Toshkent shahari hajmi qo‘shilgan holda

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati tahlil qilinganda, yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyo‘l (187,5 %), Ohangaron (105,9 %) shaharlari va Parkent (109,0 %), Quyi Chirchiq (107,6 %), Qibray(105,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Angren (102,1 %), Bekobod (102,3 %) shaharlarida va Bo‘stonliq (102,2 %) tumanida o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **34 264,5** mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan **104,9** % ni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari **14 925,8** mlrd so'mni (**105,8** %), chorvachilik mahsulotlari **19 338,7** mlrd so'mni (**104,1** %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bekobod (3 898,5 mlrd so'm), Bo'stonliq (2 909,4 mlrd so'm) va Oqqo'rg'on (2 472,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nurafshon (65,9 mlrd so'm), Ohangaron (72,3 mlrd so'm) va Olmalik (81,4 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Yangiyo'l (185,1 %), Ohangaron (105,9 %) shaharlari va Parkent (108,9 %), Quyichirchiq (107,7 %), Qibray (105,4 %) tumanida qayd etildi. Angren (101,6 %), Bekobod (102,2 %) shaharlarida va Bo'stonliq (102,0 %) tumanida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish


Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bekobod (2 497,8 mlrd so'm), Parkent (1 138,8 mlrd so'm), Oqqo'rg'on (1 187,6 mlrd so'm), Yangiyo'l (1 052,9 mlrd so'm) va Toshkent (1 057,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha nisbatan kam hajm Nurafshon (21,8 mlrd so'm), Ohangaron (20,6 mlrd so'm) va Olmaliq (20,9 mlrd so'm) shaharlarida qayd etildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Olmaliq (112,0 %), Yangiyo'l (3,3 m) shaharlari va Parkent (117,2 %), Piskent(107,8 %) tumanlarida qayd etildi. Angren (96,2 %), Ohangaron (101,6 %) shaharlari va O'rta Chirchiq (99,3 %) tumanida esa o'tgan yilga nisbatan o'zgarish pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan donlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	603 807	109,9	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	725	388,8	0,1
Olmaliq	165	161,6	0,03
Angren	217	70,9	0,04
Bekobod	93	0,0	0,02
Ohangaron	54	101,7	0,01
Chirchiq	0,0	0,0	0,0
Yangiyo'l	405	79,9	0,07
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	60 683	111,7	10,0
Ohangaron	31 528	105,6	5,2
Bekobod	87 630	106,9	14,5
Bo'stonliq	12 047	112,5	2,0
Bo'ka	71 261	108,6	11,8
Quyi Chirchiq	83 508	112,9	13,8
Zangiota	10 506	109,1	1,7
Yuqori Chirchiq	37 051	109,3	6,1
Qibray	12 811	128,9	2,1
Parkent	7 417	171,4	1,2
Piskent	47 399	109,6	7,8
O'rta Chirchiq	50 955	114,5	8,4
Chinoz	50 060	101,1	8,2
Yangiyo'l	30 107	107,3	4,9
Toshkent	9 185	108,6	1,5

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Yetishtirilgan don umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bekobod (14,5 %), Quyi Chirchiq (13,8%), Bo'ka (11,8%) va Oqqo'rg'on (10,0%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Chirchiq (0,0%), Ohangaron (0,01%), Bekobod(0,02%) va Olmaliq (0,03%) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon (388,8%) va Olmaliq (161,6%) shaharlari, Parkent (171,4%), O'rta Chirchiq (114,5%) va Quyi Chirchiq (111,4%) tumanlarida qayd etildi.

Kartoshka mahsulotini yetishtirish

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	320 053	100,5	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	896,5	100,2	0,3
Olmaliq	135,5	72,0	0,04
Angren	690,7	87,7	0,2
Bekobod	3 212,6	101,6	1,0
Ohangaron	685,1	100,3	0,2
Chirchiq	1 009,5	100,8	0,3
Yangiyo'l	385,2	44,8	0,1
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	19 805,7	92,5	6,2
Ohangaron	6 474,3	105,7	2,0
Bekobod	36 133,8	101,7	11,3
Bo'stonliq	48 969,1	93,5	15,3
Bo'ka	11 575,3	94,8	3,6
Quyi Chirchiq	22 385,6	95,9	7,0
Zangiota	20 816,4	100,6	6,5
Yuqori Chirchiq	14 611,1	103,3	4,6
Qibray	12 707,9	128,8	4,0
Parkent	11 103,4	101,2	3,4
Piskent	22 467,8	95,1	7,0
O'rta Chirchiq	14 458,8	118,3	4,5
Chinoz	21 348,0	102,2	6,7
Yangiyo'l	28 548,6	100,5	9,0
Toshkent	21 632,0	113,3	6,8


Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bo'stonliq (15,3%), Bekobod (11,3%), va Yangiyo'l (9,0%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Ohangaron (0,2%), Yangiyo'l (0,1%) va Olmaliq (0,04%) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qibray (122,6%), O'rta Chirchiq (101,7%) va Yuqori Chirchiq (101,1%) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	983 029	97,5	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	716,0	122,4	0,07
Olmaliq	1 202,5	117,9	0,1
Angren	2 077,5	90,5	0,2
Bekobod	2 892,5	101,1	0,2
Ohangaron	2 154,4	100,9	0,2
Chirchiq	2 124,9	101,9	0,2
Yangiyo'l	7 170,2	6,0 m.	0,7
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	86 473,6	93,2	8,8
Ohangaron	25 548,3	96,9	2,6
Bekobod	233 850,3	98,9	23,8
Bo'stonliq	60 387,5	98,4	6,1
Bo'ka	23 476,4	90,8	2,4
Quyi Chirchiq	33 320,2	85,3	3,4
Zangiota	72 383,9	98,7	7,3
Yuqori Chirchiq	48 163,7	91,4	4,9
Qibray	43 212,5	95,0	4,4
Parkent	34 981,7	85,0	3,5
Piskent	41 040,3	103,1	4,2
O'rta Chirchiq	22 891,9	103,2	2,3
Chinoz	69 419,5	95,1	7,0
Yangiyo'l	74 251,2	100,9	7,5
Toshkent	95 289,9	102,1	9,7

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bekobod (23,8%), Toshkent (9,7%), Chinoz (7,0%), Oqqo'rg'on (8,8%), va Zangiota (7,3%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Nurafshon (0,07%) va Olmaliq (0,1%) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Olmaliq (117,9%), Yangiyo'l (6,0 m.), Nurafshon (122,4%) shaharlarida va O'rta Chirchiq (103,2%) tumanida qayd etildi.

Poliz mahsulotini yetishtirish

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Hududlar kesimida yetishtirilgan polizlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	60 288	116,2	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	11,0	0,0	0,02
Olmaliq	1,0	10,0	0,002
Angren	0,0	0,0	0,0
Bekobod	0,0	0,0	0,0
Ohangaron	0,0	0,0	0,0
Chirchiq	0,0	0,0	0,0
Yangiyo'l	1 229	43,1 m.	2,0
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	4 165	115,0	6,9
Ohangaron	471	189,3	0,8
Bekobod	26 769	105,2	44,4
Bo'stonliq	95	108,3	0,2
Bo'ka	2 891	131,4	4,8
Quyi Chirchiq	1 680	147,6	2,8
Zangiota	2 742	110,1	4,5
Yuqori Chirchiq	432	116,6	0,7
Qibray	1 219	107,1	2,0
Parkent	4 269	108,5	7,1
Piskent	1 816	175,0	3,0
O'rta Chirchiq	545	158,1	0,9
Chinoz	3 685	132,7	6,1
Yangiyo'l	7 964	119,3	13,2
Toshkent	304	96,3	0,5


Yetishtirilgan poliz umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yangiyo'l (13,2 %), Bekobod (44,4 %) va Parkent (7,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Olmaliq (0,002 %), Nurafshon (0,02 %) shaharlari, Bo'stonliq (0,2 %) va Toshkent (0,5 %) tumanlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyo‘l (43,1 m.) shahri, Ohangaron (189,3 %), Piskent (175,0 %), Chinoz (132,7 %) va Yuqori Chirchiq (116,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan meva va rezavorlar hajmi

	Tonna	O‘shish sur‘ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	101 747	98,2	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	484	71,7	0,5
Olmaliq	775	100,3	0,8
Angren	4 871	98,9	4,8
Bekobod	2 596	100,4	2,5
Ohangaron	156	102,4	0,2
Chirchiq	482	101,6	0,5
Yangiyo‘l	322	106,0	0,3
<i>tumanlar</i>			
Oqqo‘rg‘on	3 872	100,9	3,8
Ohangaron	3 742	101,2	3,7
Bekobod	1 986	100,5	1,9
Bo‘stonliq	14 067	91,1	13,8
Bo‘ka	3 944	102,4	3,9
Quyi Chirchiq	5 243	102,1	5,1
Zangiota	5 935	100,4	5,8
Yuqori Chirchiq	5 887	101,2	5,8
Qibray	9 757	102,8	9,6
Parkent	13 081	93,0	12,8
Piskent	2 665	100,2	2,6
O‘rta Chirchiq	3 169	100,3	3,1
Chinoz	3 190	101,4	3,1
Yangiyo‘l	10 013	97,8	9,8
Toshkent	5 510	101,8	5,4

Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Qibray (9,6%), Yangiyo'l (9,2%), Bo'stonliq (13,8%), Parkent (12,8%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Ohangaron (0,2%) va Yangiyo'l (0,3%) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l (106,0%), Ohangaron (102,4%) shaharlarida qayd etildi.

Uzum mahsulotini yetishtirish

Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Hududlar kesimida yetishtirilgan uzumlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	76 190	123,1	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	113,0	39,8	0,1
Olmaliq	22,2	0,0	0,03
Angren	251,5	97,2	0,3
Bekobod	55,3	102,0	0,07
Ohangaron	46,4	104,0	0,06
Chirchiq	3,0	0,0	0,0
Yangiyo'l	75,2	114,1	0,1
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	9,2	108,2	0,01
Ohangaron	754,0	186,2	1,0
Bekobod	1 111,9	123,1	1,4
Bo'stonliq	8 494,5	126,4	11,1
Bo'ka	691,2	111,0	0,9
Quy Chirchiq	327,3	100,1	0,4
Zangiota	2 056,1	114,1	2,7
Yuqori Chirchiq	941,0	108,8	1,24
Qibray	2 820,8	105,7	3,7
Parkent	50 306,5	124,8	66,0
Piskent	3 046,3	104,6	4,0
O'rta Chirchiq	342,8	101,5	0,4
Chinoz	1 407,1	139,9	1,8
Yangiyo'l	955,0	125,8	1,2
Toshkent	2 359,9	151,7	3,10

Yetishtirilgan uzum umumiy hajmining eng yuqori ulushi Parkent (66,0 %) va Bo'stonliq (11,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Chirchiq(0,0 %), Ohangaron (0,06 %), Yangiyo'l (0,1 %) va Olmaliq (0,03 %) shaharlarida, Oqqo'rg'on (0,01 %) tumanida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Ohangaron (186,6 %), Yangiyo'l (125,8), Chinoz (139,9 %), Qibray (105,7 %), Oqqo'rg'on (108,2 %), Bo'ka (111,0 %), Bo'stonliq (126,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 71,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 14,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 13,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bo'stonliq (1 958,1 mlrd so'm), Zangiota (1 490,2 mlrd so'm), Yuqori Chirchiq (1 351,2 mlrd so'm), Yangiyo'l (1 241,6 mlrd so'm) va Oqqo'rg'on (1 284,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (32,3 mlrd so'm), Ohangaron (51,7 mlrd so'm) va Olmaliq (60,5 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Ohangaron (107,8 %) va Chirchiq (106,1 %) shaharlari, Bekobod (108,6 %), Yuqori Chirchiq (106,5 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiyo'l (99,5 %) shahri, Chinoz (98,0 %), Parkent (97,5 %) va Bo'ka (99,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 239,7 ming tonna go'sht, 841,5 ming tonna sut, 1 123,9 mln dona tuxum olindi va 12,2 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,2 %** ni, sog'ib olingan sut – **101,2 %** ni, olingan tuxum – **110,1 %** ni hamda ovlangan baliqlar – **107,1 %** ni tashkil qildi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **2,1** foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, **76,8** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **21,1** foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **5,0** foizi fermer xo'jaliklari, **89,2** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **5,8** foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Yanvar-sentabr 2025- y.	O'sish sur'ati, % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	239,7	104,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,0	105,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	184,0	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	50,7	119,0
Sut, ming tonna	841,5	101,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	42,0	112,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	750,7	98,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	48,8	142,9
Tuxum, mln dona	1 123,9	110,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,5	74,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	596,6	98,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	525,8	127,0
Jun, tonna	1 492,0	104,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	306,0	105,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 104,0	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	82,0	195,2
Baliq, ming tonna	12,2	107,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,1	110,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,03	198,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,1	106,6

Shu bilan birga, olingan tuxumning **0,1** foizi fermer xo‘jaliklariga, **53,4** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **46,5** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning **9,1** foizi fermer xo‘jaliklariga, **0,3** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **90,6** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<i>Go'sht (tirik vaznda), tonna</i>	<i>Sut, tonna</i>	<i>Tuxum, ming dona</i>
Toshkent viloyati	239 716	841 520	1 123 863
<i>shahar</i>			
Nurafshon	502,8	2 150,7	896,8
Olmalik	398,3	5 739,9	1 035,4
Angren	3 555,9	7 089,1	1 436,8
Bekobod	5 475,5	9 374,9	4 421,9
Ohangaron	566,1	2 767,3	876,4
Chirchiq	625,1	8 045,5	6 764,0
Yangiyo‘l	374,9	1 730,8	1 006,6
<i>tumanlar</i>			
Oqqo‘rg‘on	15 264,1	55 230,9	25 978,8
Ohangaron	12 819,5	49 872,4	64 011,7
Bekobod	15 143,9	75 203,4	27 862,8
Bo‘stonliq	24 104,7	90 020,6	126 101,9
Bo‘ka	13 537,7	44 932,6	28 491,6
Quyichirchiq	11 723,7	42 180,2	40 316,2
Zangiota	19 924,1	40 755,9	134 403,7
Yuqori Chirchiq	15 557,6	83 330,5	120 191,5
Qibray	13 461,2	48 239,7	189 634,3
Parkent	13 109,7	66 028,1	29 678,6
Piskent	13 586,5	41 797,1	34 963,5
O‘rta Chirchiq	19 246,2	41 309,5	102 870,8
Chinoz	11 235,8	49 642,7	41 789,3
Yangiyo‘l	21 007,7	47 643,9	79 631,3
Toshkent	8 495,0	28 434,3	61 499,1

4. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025- yilning 1- oktabr holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni **964,4** ming boshga yetdi (*o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga ko‘p*), sigirlar – **424,9** ming boshga (*0,9 % ga ko‘p*), qo‘y va echkilar – **1 112,0** ming boshga (*1,8 % ga ko‘p*), parrandalar – **19 969,9** ming boshga (*19,9 % ga ko‘p*) yetdi.

2025- yilning 1- oktabr holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O‘sish sur‘ati
Yirik shoxli qoramollar	964,4	101,1
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	87,1	102,2
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	820,8	100,5
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	56,5	109,1
shundan sigirlar	424,9	101,0
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	27,0	105,2
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	379,8	99,7
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	18,1	127,0
Qo‘y va echkilar	1 112,0	101,7
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	323,9	100,8
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	695,5	100,6
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	92,6	115,4
Otlar	56,4	100,9
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	10,7	103,5
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	42,3	100,3
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,4	99,4
Parrandalar	19 969,9	119,9
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	197,1	127,9
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	8 577,7	100,2
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11 195,1	141,1

2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,0 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 85,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 6,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 89,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 28,8 foizi fermer xo'jaliklariga, 62,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 1 foizi fermer xo'jaliklariga, 43,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 55,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025- yilning 1- oktabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Toshkent viloyati	964 401	1 112 022	19 969 957
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	3 552	3 688	7 357
Olmaliq	5 296	10 406	12 698
Angren	16 462	25 029	33 534
Bekobod	5 838	11 446	33 304
Ohangaron	5 307	4 420	17 413
Chirchiq	3 607	10 319	70 000
Yangiyo'l	2 300	1 786	10 529
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	65 369	41 536	302 949
Ohangaron	77 763	273 298	892 631
Bekobod	85 693	43 858	528 291
Bo'stonliq	59 823	142 288	2 210 481
Bo'ka	81 276	67 490	627 456
Quyichirchiq	52 821	16 833	837 679
Zangiota	36 893	20 456	1 894 243
Yuqorichirchiq	66 293	38 678	2 228 686
Qibray	48 258	36 553	1 896 282
Parkent	59 752	117 457	519 076
Piskent	67 399	86 356	514 424
O'rta Chirchiq	57 939	54 847	2 566 186
Chinoz	62 212	40 027	737 480
Yangiyo'l	67 470	47 602	3 035 315
Toshkent	33 078	17 649	993 943

5. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada oʻz isteʼmoli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xoʻjaligida, oʻrmonchilik va yogʻoch tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xoʻjaliklarida, dehqon va tomorqa xoʻjaliklarida hamda qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xoʻjaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xoʻjaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xoʻjaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xoʻjaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xoʻjaligi boshligʻiga berilgan yer uchastkasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xoʻjaligi aʼzolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xoʻjalikdir.

Tomorqa xoʻjaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bogʻliq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xoʻjalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xoʻjalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xoʻjalik toifalari boʻyicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini oʻz ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qoʻy va echkilar, choʻchqalar va h.k.)

Goʻsht yetishtirish – soʻyish uchun sotilgan hamda oʻz xoʻjaligida soʻyilgan barcha turdagi qishloq xoʻjaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini oʻz ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sogʻib olingan sut va ogʻiz sutini qoʻshgan holda, haqiqatda sogʻib olingan sigir, echki, qoʻy, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sogʻib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda joʻja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini oʻz ichiga oladi.

IV. TOSHKENT VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR


2025- yil yanvar-sentabr

1. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
2. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o‘sh sur’ati
3. Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibi
4. Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
5. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar
6. Toshkent viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
7. Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish ishlari
8. Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari bo‘yicha usbuliy tushuntirishlar

1. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So‘nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli **3,3** barobarga ko‘paydi, shuningdek, 2025- yil yanvar-sentabr oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **9 837,9** mlrd so‘mga ko‘p investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi
(yanvar-sentabr)




Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025- yil yanvar-sentabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan **63 590,2** mlrd so‘m miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, bu ko‘rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan **110,2** % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	
			2024- y.	2025- y.
JAMI:	63 590,2	110,2	100,0	100,0
Markazlashgan investitsiyalar	3 979,3	71,0	9,7	6,3
Respublika budjeti	1 581,6	95,1	2,9	2,5
Suv va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jang'armasi	173,8	42,7	0,7	0,3
Tiklanish va taraqqiyot jang'armasi	-	-	1,6	-
Kafolat ostida xorijiy kreditlar	2 223,9	85,5	4,5	3,5
Markazlashmagan investitsiyalar	59 610,9	114,5	90,3	93,7
Korxonalar o'z mablag'i	10 177,1	122,1	14,5	16,0
Bank krediti (<i>boshqa qarz mablaglarini qo'shgan holda</i>)	967,7	98,3	1,7	1,5
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	44 969,1	113,4	67,7	70,7
<i>shundan:</i>				
<i>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>27 352,1</i>	<i>115,2</i>	<i>24,2</i>	<i>43,0</i>
<i>Boshqa va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar</i>	<i>17 617,0</i>	<i>70,3</i>	<i>43,5</i>	<i>22,2</i>
Aholi mablag'i	3 497,0	93,4	6,4	5,5

2025- yil yanvar-sentabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm **3 973,3** mlrd so'mni va 2024- yilning mos davriga nisbatan **71,0 %** ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa **6,3 %** ga yetdi.

Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi foizda (yanvar-sentabr)



2. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da	shu jumladan aholi jon boshiga	
			hajmi, ming so'm	o'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	63 590,2	110,2	20 326,1	108,3
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	2 045,7	88,6	35 270,3	86,6
Olmaliq	10 831,8	56,9	72 308,6	56,0
Angren	2 080,2	54,6	11 147,7	53,7
Bekobod	1 685,4	70,7	15 825,1	69,7
Ohangaron	799,9	84,7	18 910,2	83,3
Chirchiq	3 408,4	123,3	19 300,0	121,4
Yangiyo'l	1 081,0	187,2	12 297,8	183,5
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	1 058,8	98,2	9 239,0	96,7
Ohangaron	4 720,8	2,0 m.	41 556,0	2,0 m.
Bekobod	635,1	121,2	3 751,0	119,3
Bo'stonliq	4 891,7	2,9 m.	27 419,8	2,8 m.
Bo'ka	2 712,2	4,8 m.	19 739,2	4,7 m.
Quy Chirchiq	1 856,4	147,6	15 692,0	145,5
Zangiota	3 982,9	166,6	22 439,1	162,1
Yuqori Chirchiq	7 290,4	164,4	51 124,7	161,5
Qibray	1 449,5	44,0	8 057,0	43,4
Parkent	1 222,9	3,6 m.	6 678,6	3,6 m.
Piskent	3 461,0	3,9 m.	33 310,8	3,9 m.
O'rta Chirchiq	1 803,7	128,9	12 756,3	126,3
Chinoz	1 167,0	100,5	7 826,6	98,8
Yangiyo'l	3 115,3	107,8	15 167,2	105,7
Toshkent	2 290,1	141,6	11 102,4	138,2


Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida yuqori o'sish ko'rsatkichlari Bo'ka (*o'tgan yilga nisbatan 4,8 m. o'sgan*), Piskent (*3,9 m.*), Parkent (*3,6 m.*), Bo'stonliq (*2,9 m.*) va Ohangaron (*2,0 m.*) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi**

	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxonalar va tashkilot o'z mablag'i	Aholi mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamgarmasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
Viloyat bo'yicha:	63 590,2	2,5	16,0	5,5	74,2	0,3	0,0	1,5
<i>shaharlar:</i>								
Nurafshon	2 045,7	30,2	29,6	3,2	36,9	0,0	0,0	0,1
Olmalik	10 831,8	0,3	21,3	1,6	76,7	0,0	0,0	0,1
Angren	2 080,2	2,2	14,2	0,3	80,9	0,0	0,0	2,4
Bekobod	1 685,4	0,3	28,2	3,0	68,4	0,0	0,0	0,1
Ohangaron	799,9	0,2	37,8	6,0	55,3	0,0	0,0	0,7
Chirchiq	3 408,4	2,5	14,9	3,0	76,8	0,0	0,0	2,8
Yangiyo'l	1 081,0	4,7	3,9	3,8	87,2	0,0	0,0	0,4
<i>tumanlar:</i>								
Oqqo'rg'on	1 058,8	1,3	6,2	7,1	85,2	0,0	0,0	0,2
Ohangaron	4 720,8	1,9	8,1	1,9	87,1	0,3	0,0	0,7
Bekobod	635,1	1,9	11,5	9,6	76,2	0,0	0,0	0,8
Bo'stonliq	4 891,7	1,3	17,9	5,6	74,3	0,7	0,0	0,2
Bo'ka	2 712,2	0,8	1,5	2,8	92,4	1,8	0,0	0,7
Quyichirchiq	1 856,4	0,6	6,1	5,3	88,0	0,0	0,0	0,0
Zangiota	3 982,9	2,3	9,9	6,6	69,0	0,3	0,0	11,9
Yuqorichirchiq	7 290,4	0,6	21,5	4,4	73,3	0,0	0,0	0,2
Qibray	1 449,5	6,2	25,6	26,9	36,6	1,7	0,0	3,0
Parkent	1 222,9	9,6	13,0	13,4	57,9	2,8	0,0	3,3
Piskent	3 461,0	0,3	0,8	3,1	94,2	0,1	0,0	1,5
O'rta Chirchiq	1 803,7	1,2	28,3	14,2	53,6	0,0	0,0	2,7
Chinoz	1 167,0	1,3	5,3	8,1	83,1	0,0	0,0	2,2
Yangiyo'l	3 115,3	0,7	24,4	7,0	67,5	0,0	0,0	0,4
Toshkent	2 290,1	5,2	10,4	22,8	61,1	0,0	0,0	0,5

3. Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibi

Toshkent viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlariga **29,3** trln so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **46,1 %** ini tashkil etdi, mashina, uskuna, inventar ishlari bo'yicha **26,6** trln so'm (*jami investitsiyalardagi ulushi 41,9 %*) va boshqa xarajatlarga **7,7** trln so'm (*12,0 %*) o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

	Jamiga nisbatan, % da		
	yangi qurilish	kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya	boshqa yo'nalishlar
Viloyat bo'yicha:	46,1	41,9	12,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	76,4	21,2	2,4
Olmalik	51,6	48,1	0,3
Angren	18,2	78,4	3,4
Bekobod	34,7	37,0	28,3
Ohangaron	40,3	58,1	1,6
Chirchiq	61,9	36,0	2,1
Yangiyo'l	54,9	38,2	6,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	57,9	40,5	1,6
Ohangaron	25,5	31,5	43,0
Bekobod	23,5	67,3	9,2
Bo'stonliq	82,4	12,4	5,2
Bo'ka	19,0	79,0	2,0
Quyichirchiq	43,0	54,1	2,9
Zangiota	36,2	32,5	31,3
Yuqorichirchiq	28,6	70,5	0,9
Qibray	61,3	27,8	10,9
Parkent	56,2	31,6	12,2
Piskent	8,1	28,9	63,0
O'rta Chirchiq	69,9	16,8	13,3
Chinoz	32,1	66,0	1,9
Yangiyo'l	61,5	28,4	10,1
Toshkent	83,4	15,1	1,5

4. Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **14 525,0** mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **22,8** foizi o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, % da	
		2024- y.	2025- y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	63 590,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 788,6	8,5	9,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	11 232,6	36,0	17,7
Ishlab chiqaradigan sanoat	14 525,0	21,8	22,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	12 159,4	9,4	19,1
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	1 397,1	3,2	2,2
Qurilish	5 160,1	2,6	8,1
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	1 008,2	1,4	1,6
Tashish va saqlash	2 786,0	2,7	4,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	406,4	0,2	0,7
Axborot va aloqa	681,3	0,4	1,1
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	150,7	0,1	0,2
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	260,6	0,4	0,4
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1 008,2	1,7	1,6
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	1 660,6	1,0	2,6
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	1 093,6	1,1	1,7
Ta'lim	332,3	0,8	0,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	457,4	1,3	0,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	156,2	0,5	0,3
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	3 325,9	6,9	5,2

5. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


2025- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar **3 680,9** mln dollar yoki **47 193,1** mlrd so‘mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar,

(mlrd so‘m)

	To‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
Viloyat bo‘yicha:	27 352,2	2 223,9	17 617,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	689,2	68,2	0,0
Olmalik	1 990,1	0,0	6 310,8
Angren	1 670,5	14,3	0,0
Bekobod	631,8	0,0	520,8
Ohangaron	442,4	0,0	0,0
Chirchiq	1 400,5	20,4	1 195,2
Yangiyo‘l	567,3	30,7	344,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	682,8	0,0	219,3
Ohangaron	3 671,7	9,3	431,7
Bekobod	0,0	0,0	483,9
Bo‘stonliq	1 720,0	496,4	1 416,3
Bo‘ka	1 661,2	0,0	847,4
Quyichirchiq	726,4	303,2	604,8
Zangiota	1 928,2	574,8	244,8
Yuqori Chirchiq	4 983,3	0,0	350,6
Qibray	309,8	111,2	109,8
Parkent	165,9	16,8	526,4
Piskent	1 231,6	0,0	2 031,8
O‘rta Chirchiq	928,9	0,0	38,3
Chinoz	613,8	119,6	236,4
Yangiyo‘l	1 126,0	459,0	517,5
Toshkent	210,8	0,0	1 186,6

Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



6. Toshkent viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025- yil yanvar-sentabr oylarida jami **1 435,2** ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **98,2 %** ni tashkil etdi.

Shundan **1 065,7** ming kv.m turar-joylar qishloq joylarda qurilgan.


Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylarda ming kv.m	Suv tarmogʻi, km	Gaz tarmogʻi, km
Viloyat boʻyicha:	1 435,2	1 065,7	-	-
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	28,4	-	-	-
Olmaliq	42,0	-	-	-
Angren	29,0	-	-	-
Bekobod	19,6	-	-	-
Ohangaron	36,7	-	-	-
Chirchiq	20,2	-	-	-
Yangiyoʻl	16,0	-	-	-
<i>tumanlar:</i>				
Oqqoʻrgʻon	30,5	23,9	-	-
Ohangaron	29,9	29,9	-	-
Bekobod	20,0	18,5	-	-
Boʻstonliq	110,8	92,9	-	-
Boʻka	25,6	22,3	-	-
Quy Chirchiq	44,6	31,0	-	-
Zangiota	110,7	108,1	-	-
Yuqori Chirchiq	143,2	143,2	-	-
Qibray	159,5	121,1	-	-
Parkent	70,7	50,0	-	-
Piskent	45,1	20,6	-	-
Oʻrta Chirchiq	111,3	104,7	-	-
Chinoz	37,7	23,7	-	-
Yangiyoʻl	96,6	94,5	-	-
Toshkent	207,2	181,5	-	-

7. Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, Toshkent viloyatida jami **25 228,7** mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **112,6 %** ni tashkil etdi.


Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida)



Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da	shu jumladan, aholi jon boshiga	
			hajmi, ming so'm	o'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	25 228,7	112,6	8 064,2	110,6
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	813,5	121,3	14 026,6	118,6
Olmaliq	2 635,6	104,2	17 593,9	102,6
Angren	537,3	118,8	2 879,4	116,9
Bekobod	558,3	123,4	5 242,6	121,7
Ohangaron	222,0	116,1	5 249,0	114,2
Chirchiq	1 431,9	110,8	8 108,2	109,1
Yangiyo'l	561,6	116,4	6 388,6	114,2
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	759,4	212,2	6 626,2	209,0
Ohangaron	441,1	125,3	3 882,9	123,6
Bekobod	298,1	212,9	1 760,8	209,5
Bo'stonliq	1 036,8	116,7	5 811,5	115,9
Bo'ka	350,5	116,1	2 550,7	114,3
Quy Chirchiq	1 005,0	120,5	8 495,1	118,8
Zangiota	1 455,7	118,3	8 201,3	115,1
Yuqori Chirchiq	1 274,1	107,5	8 934,7	105,7
Qibray	1 576,4	112,3	8 762,6	110,3
Parkent	659,0	101,6	3 599,1	99,7
Piskent	347,0	124,0	3 339,7	121,9
O'rta Chirchiq	668,9	117,5	4 730,3	114,9
Chinoz	313,5	108,7	2 102,9	106,8
Yangiyo'l	1 267,3	119,6	6 170,0	117,3
Toshkent	1 220,8	117,5	5 917,5	114,3
Yashirin iqtisodiyot	5 794,9	100,4	-	-

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi **63,5 %** ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **86,7 %** ga to'g'ri keldi;


- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **22,0 %** ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **30,5 %** ga to'g'ri keldi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **14,5 %** ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **3,4** barobarga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	3 305,3	834,8	72,7
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	154,6	39,0	88,3
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	4 949,5	4 722,1	3 592,5
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	60,6	57,8	3,4 m.
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	7 751,9	-	-
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	95,3	-	-

Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi **4 212,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan **141,0 %** ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi **16,7 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **52,6 %** ga to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan **117,1 %** ni tashkil etgan holda **13 264,1** mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi **30,7 %** ni yoki **7 751,9** mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **95,3 %** ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Viloyat bo'yicha:	4 212,8	13 264,1	7 751,9	141,0	117,1	95,3
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	73,1	667,5	72,9	7,6 m.	108,8	154,4
Olmalik	2 039,7	491,6	104,3	124,5	61,9	107,9
Angren	55,9	399,7	81,7	131,1	117,9	115,6
Bekobod	3,9	492,2	62,2	4,5	164,1	94,3
Ohangaron	10,3	156,4	55,4	103,6	119,5	109,6
Chirchiq	106,7	1 216,0	109,3	115,9	107,5	158,8
Yangiyo'l	2,6	509,8	49,2	2,6 m.	121,6	78,6
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	476,1	217,5	65,8	-	81,8	70,1
Ohangaron	0,0	361,5	79,6	-	138,5	93,8
Bekobod	116,3	120,3	61,5	16,1 m.	147,9	118,0
Bo'stonliq	163,2	614,0	259,6	127,5	108,6	133,7
Bo'ka	33,1	252,1	65,3	68,7	175,9	58,3
Quyi Chirchiq	6,0	891,6	107,4	2,6 m.	122,5	103,0
Zangiota	195,8	996,8	263,1	13,5 m.	113,7	76,8
Yuqori Chirchiq	65,8	889,7	318,5	58,5	104,8	143,8
Qibray	396,0	788,6	391,8	86,7	187,4	73,7
Parkent	29,0	470,1	159,9	34,6 m.	90,4	126,3
Piskent	7,4	231,4	108,2	39,1	138,8	114,6
O'rta Chirchiq	39,8	374,9	254,2	-	102,0	126,2
Chinoz	3,5	219,3	90,7	98,9	170,5	57,2
Yangiyo'l	16,9	1 036,6	213,8	57,3	121,3	121,6
Toshkent	5,0	687,6	528,2	54,0	2,1 m.	73,7
Yashirin iqtisodiyot	366,7	1 178,9	4 249,3	136,2	112,6	95,3

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Parkent (2024- yilning mos davriga nisbatan 34,6 m.), Bekobod (16,1 m.) va Zangiota (13,5 m.) tumanlarida qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (2024- yilning mos davriga nisbatan 2,1 m.), Qibray (187,4 %) va Chinoz (176,0 %) tumanlarida kuzatildi.

8. Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari bo'yicha usbuliy tushuntirishlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari;
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

V. TOSHKENT VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2025- yil yanvar-sentabr


1. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
2. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
3. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
4. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

1. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹

2025- yil yanvar-sentabr oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **48 839,8** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,8 %** ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi **38 877,8** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **113,1 %** ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi, % da



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 2024- yilning mos davriga (*12 650,2 ming so'm*) nisbatan **112,8 %** ga o'sib, **15 611,2** ming so'mni tashkil etdi.

¹ 2024- yil yanvar-sentabr oylari hajmi va 2025- yil yanvar- sentyabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **35 162,5** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **72,0 %** ini tashkil etdi.

2. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar-sentabr)

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Toshkent viloyati	48 839,8	100,0	114,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	926,5	1,9	115,8
Olmaliq	2 623,1	5,4	116,4
Angren	2 355,1	4,8	116,1
Bekobod	1 747,7	3,6	115,8
Ohangaron	807,6	1,7	115,9
Chirchiq	3 016,3	6,2	116,0
Yangiyo'l	1 661,4	3,4	116,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	961,7	2,0	115,6
Ohangaron	548,7	1,1	115,7
Bekobod	1 103,7	2,3	115,6
Bo'stonliq	2 205,5	4,5	116,3
Bo'ka	1 029,3	2,1	115,9
Quy Chirchiq	713,9	1,5	116,0
Zangiota	3 481,0	7,1	116,1
Yuqori Chirchiq	1 552,5	3,2	116,2
Qibray	2 962,4	6,1	115,7
Parkent	1 410,2	2,9	115,8
Piskent	550	1,1	115,6
O'rta Chirchiq	1 201,4	2,5	115,7
Chinoz	1 011,4	2,1	115,8
Yangiyo'l	1 770,8	3,6	115,7
Toshkent	2 199,6	4,5	116,0
Yashirin iqtisodiyot	13 000,0	26,6	113,4

Toshkent viloyatida eng yuqori ulushga ega hududlar Zangiota (7,1 %), Qibray (6,1 %) tumanlari hamda Chirchiq (6,2 %), Olmaliq (5,4 %) shaharlaridir.

3. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida asosiy xizmat turlaridan ba'zilari, jumladan moliyaviy xizmatlar **38,5 %** ga (*ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi 3,9 band*), savdo xizmatlari **13,9 %** ga (*hissasi 3,1 band*), yashash va ovatlanish xizmatlari **10,5 %** ga (*hissasi 1,9 band*), transport xizmatlari **10,7 %** ga (*hissasi 2,2 band*), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **21,9 %** ga (*hissasi 0,8 band*), boshqa xizmatlar **18,5 %** ga (*hissasi 1,0 band*), ijara xizmatlari **22,6 %** ga (*hissasi 0,5 band*), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **11,8 %** ga (*hissasi 0,4 band*), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar **12,5 %** ga (*hissasi 0,3 band*), shaxsiy xizmatlar **9,3 %** ga (*hissasi 0,3 band*), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **9,2 %** ga (*hissasi 0,2 band*), ta'lim sohasidagi xizmatlar **5,9 %** ga (*hissasi 0,2 band*), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar **7,5 %** ga (*hissasi 0,1 band*) o'sdi.


Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar-sentabr)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar- jami	38 877,9	48 839,8	114,8
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 311,7	1 810,7	121,9
Moliyaviy xizmatlar	3 690,5	5 208,8	138,6
Transport xizmatlari	7 732,8	9 646,1	110,7
shu jumladan: avtotransport xizmati	6 959,5	8 635,2	109,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	8 593,6	10 548,5	110,5
Savdo xizmatlari	9 394,4	11 318,5	113,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1 073,6	1 377,9	109,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 061,8	1 283,7	105,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 187,7	1 440,4	111,8
Ijara xizmatlari	798,8	1 069,9	122,6
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	854,1	1 057,7	112,5
Shaxsiy xizmatlar	978,6	1 242,3	109,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar	496,6	583,0	107,5
Boshqa xizmatlar	1 703,7	2 252,3	118,5

2025- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari **23,2 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **21,6 %**, transport xizmatlari **19,8 %**, moliyaviy xizmatlar **10,7 %**, boshqa xizmatlari **4,6 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,7 %**, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **2,9 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar **2,6 %**, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **2,8 %**, shaxsiy xizmatlar **2,5 %**, ijara xizmatlari **2,2 %**, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar **2,2 %**, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar **1,2 %** ulushni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 24,2 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 22,1 %, transport xizmatlari 19,9 %, moliyaviy xizmatlar 9,5 %, boshqa xizmatlar 4,4 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 3,4 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 3,1 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar 2,7 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 2,8 %, shaxsiy xizmatlar 2,5 %, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 2,2 %, ijara xizmatlari 2,1 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar 1,3 % ulushni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
(2025- yil yanvar-sentabr, % da)




2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **53,7 %** ni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **9,2 %** ga o'sdi.

Transport xizmatlarida omborxonalar va yordamchi transport xizmatlari (44,6 %) hamda **pochta va kurerlik xizmatlari (26,9 %)** da yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani quruqlikdagi taranport xizmatlari va quvurlarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** o'sish kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **24,9 mlrd so'mga** yoki **16,7 %** ga o'sishi kuzatildi.

Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi, % da



Savdo xizmatlari borasida chakana savdo xizmatlari ushbu tur hajmining **60,7 %** ulushini tashkil etayotgan bo'lsa, ulgurji savdo xizmatlari **28,7 %** ini qamrab olmoqda.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **90,8 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **9,2 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida **ta'lim sohasidagi xizmatlarning** ulushi jami bozor xizmatlarida **2,6 %** bo'lib, 2024- yil mos davriga nisbatan **5,9 %** ga o'sdi.

4. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

VI. TRANSPORT

2025- yil yanvar-sentabr

1. Yuk tashish va yuk aylanmasi
2. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
3. Uslubiy ma'lumotlar

1. Yuk tashish va yuk aylanmasi

2025- yil yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari tomonidan **217,3 mln t** yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **109,9 %** ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida tashilgan yuk va yuk aylanmasi

	Tashilgan yuklar, ming t	2024- yilga nisbatan, % da	Yuk aylanmasi, ming t-km	2024- yilga nisbatan, % da
Viloyat bo'yicha:	217 288,3	109,9	1 947 737,7	110,0
shaharlar:				
Nurafshon	783,9	103,0	21 303,8	103,4
Olmaliq	133 118,6	111,0	611 046,3	105,5
Angren	43 867,6	106,4	311 235,8	109,7
Bekobod	4 255,7	104,6	100 130,5	118,7
Ohangaron	5 486,9	107,0	43 597,0	117,0
Chirchiq	1 947,3	105,7	76 096,1	111,5
Yangiyo'l	828,3	107,2	14 220,6	101,6
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	947,5	106,4	15 127,2	105,4
Ohangaron	1 316,4	111,1	18 676,1	108,9
Bekobod	2 800,3	101,0	56 429,6	114,1
Bo'stonliq	1 847,0	120,7	129 562,9	118,7
Bo'ka	1 172,0	112,5	25 766,6	115,0
Quyi Chirchiq	522,7	108,1	7 104,7	112,4
Zangiota	3 798,1	121,4	88 344,0	116,6
Yuqori Chirchiq	2 565,2	107,3	54 227,9	115,3
Qibray	2 596,9	115,8	61 143,8	115,9
Parkent	1 122,7	113,9	13 421,8	111,5
Piskent	928,2	110,6	13 753,4	104,4
O'rta Chirchiq	2 186,1	116,7	86 218,7	114,1
Chinoz	1 310,0	105,7	55 624,5	109,3
Yangiyo'l	2 920,9	116,0	113 796,9	104,6
Toshkent	966,1	107,0	30 909,5	106,6

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning yuk tashish hajmi 2025- yil yanvar-sentabr oyida **101,3 %** ga teng bo'ldi va **17,2 mln t** ni tashkil qildi. Yuk tashishning umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **7,9 %** ni tashkil etdi (2024- yil yanvar-sentabrda yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi **8,6 %** ni tashkil etgan).

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan **1 947,7 mln t-km** ni va o'sish sur'ati **110,0 %** ni tashkil etdi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning yuk aylanmasi 2025- yil yanvar-sentabr oyida **100,1 %** ga teng bo'ldi va **376,1 mln t-km** ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **19,3 %** ni tashkil etdi.

2. Yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

2025- yil yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari tomonidan **630,9 mln** yo'lovchi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan **107,0 %** ni tashkil etdi.

	Tashilgan yo'lovchilar, ming yo'lovchi	2024- yilga nisbatan, % da	Yo'lovchi aylanmasi, ming yo'lovchi-km	2024- yilga nisbatan, % da
Viloyat bo'yicha:	630 919,0	107,0	14 925 261,7	102,4
shaharlar:				
Nurafshon	13 503,8	109,5	209 797,5	101,1
Olmaliq	33 546,4	109,8	880 738,2	101,5
Angren	33 401,9	113,1	1 442 086,8	101,5
Bekobod	14 644,5	108,4	539 173,9	102,2
Ohangaron	11 136,7	106,7	206 208,3	101,2
Chirchiq	92 055,3	103,1	1 049 562,7	101,1
Yangiyo'l	15 590,1	107,1	712 137,1	101,8
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	12 503,2	108,3	544 325,7	100,2
Ohangaron	14 202,2	106,7	308 610,2	101,9
Bekobod	21 659,9	107,4	756 496,2	103,5
Bo'stonliq	18 798,1	101,2	651 001,7	103,7
Bo'ka	19 123,2	106,8	627 964,4	102,9
Quyichirchiq	11 162,8	106,3	277 216,2	104,5
Zangiota	66 179,0	112,1	1 360 855,7	104,5
Yuqori Chirchiq	50 794,2	102,4	939 799,0	101,0
Qibray	35 595,4	112,5	1 136 066,1	104,2
Parkent	23 255,8	103,7	478 064,9	106,0
Piskent	17 140,4	105,4	215 667,3	101,8
O'rta Chirchiq	18 274,9	106,2	623 756,4	101,8
Chinoz	11 849,9	104,5	511 504,2	102,6
Yangiyo'l	73 432,0	107,4	953 259,7	101,1
Toshkent	23 069,4	107,2	500 969,7	101,1

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportida yo‘lovchi tashish hajmi 2025- yil yanvar-sentabr oyida **107,3 %** ga teng bo‘ldi va **394,2 mln** yo‘lovchini tashkil qildi. Yo‘lovchi tashishning umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **62,5 %** ni tashkil etdi (2024- yil yanvar-sentabr oylarida yo‘lovchi tashishning umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **62,3 %** ni tashkil etgan).

2025- yil yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari tomonidan yo‘lovchi aylanmasi **14 925,3 mln yo‘lovchi-km** ni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **102,4 %** ga teng bo‘ldi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportida yo‘lovchi aylanmasi 2025- yil yanvar-sentabr oyida **101,4 %** ga teng bo‘ldi va **10 500,8 mln yo‘lovchi-km** ni tashkil qildi. Yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **70,4 %** ni tashkil etdi (2024- yil yanvar-sentabr oylarida yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi **71,0 %** ni tashkil etgan).

3. Uslubiy ma’lumotlar

Transport statistikasi – transportda sodir bo‘ladigan hodisalar va jarayonlarni o‘rganadigan statistika sohasidir. Transport statistikasi ko‘rsatkichlari transportning alohida turlari bo‘yicha ma’lumotlarni: temir yo‘l, avtomobil, shahar elektr, quvur yo‘li va havo ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Yuk tashish (yuk tashish hajmi) – transport orqali tashilgan yuklarning tonnalaridagi miqdori (pullik bagaj va pochtani qo‘shgan holda). Ko‘rsatkich transport turlari, qatnov, yuk turlari bo‘yicha hisobga olinadi. Yuklarni tashish jarayonining dastlabki daqiqasi “jo‘natilgan yuklar (jo‘natish)” ko‘rsatkichi bilan aks ettiriladi, yakuniy nuqta – “kelib tushgan yuklar (kelib tushishi)” ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Tashilgan yo‘lovchilar – ma’lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni (*statistik kuzatuv birligi bo‘lib, yo‘lovchi-qatnovi hisoblanadi*).

Yo‘lovchi aylanmasi – transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo‘yicha alohida hisoblanadi.

VII. TOSHKENT VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil yanvar-sentabr

1. Chakana savdo tovar aylanmasi
2. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
3. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi
4. Tushumtirishlar


1. Chakana savdo tovar aylanmasi

2025- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **8 662** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **27** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **8 635** tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi **29 528,5** mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **109,9 %** ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **4 036,7** mlrd so'mni (*o'sish sur'ati* 97,7%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **25 491,8** mlrd so'mni (12,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 316,1** mlrd so'mni (7,1 %) tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati,
(% da)

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Toshkent viloyati	29 528,5	109,9	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	375,9	105,1	1,3
Olmaliq	2 589,2	110,6	8,8
Angren	1 840,5	107,2	6,2
Bekobod	1 392,3	108,1	4,7
Ohangaron	1 047,6	109,2	3,5
Chirchiq	1 532,5	108,6	5,2
Yangiyo'l	1 829,3	109,7	6,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	1 121,9	107,8	3,8
Ohangaron	363,6	108,6	1,2
Bekobod	597,0	111,2	2,0
Bo'stonliq	1 930,8	109,9	6,5
Bo'ka	1 074,4	110,7	3,6
Quyichirchiq	393,7	109,9	1,3
Zangiota	3 557,7	114,2	12,0
Yuqori Chirchiq	685,8	110,0	2,3
Qibray	1 738,3	109,9	5,9
Parkent	1 012,8	110,0	3,4
Piskent	735,9	109,1	2,5
O'rta Chirchiq	388,0	108,3	1,3
Chinoz	798,6	109,2	2,7
Yangiyo'l	967,6	105,7	3,3
Toshkent	2 147,2	111,0	7,4
Yashirin iqtisodiyot	1 407,9	110,7	4,9

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida Zangiota, Toshkent, Bo'ka tumanlari, Olmaliq, Ohangaron, Yangiyo'l shaharlari ulushi boshqa hududlarga nisbatan yuqoridir.

2. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **5 123** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **36** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **5 087** tani tashkil qildi.


Toshkent viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **39 977,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **13,2 %** ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining viloyat bo'yicha ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi **32 728,3** mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **10,3 %** ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo aylanma hajmidagi ulushi **78,7 %** ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Quyi Chirchiq (*27,6 m.*), Zangiota (*10,1 m.*) va Bo'stonliq (*2,3 m.*) tumanlari hamda Chirchiq (*4,2 m.*) shahrida kuzatildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi

(mlrd so'm)



Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘shish sur‘atlari
(foizda)

	Hajmi, mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Toshkent viloyati	39 977,7	113,2	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	151,2	110,8	0,4
Olmalik	1 006,8	111,5	2,5
Angren	914,9	114,9	2,3
Bekobod	397,7	112,1	1,0
Ohangaron	2 638,4	109,7	6,6
Chirchiq	2 917,9	114,8	7,3
Yangiyo‘l	1 834,3	111,2	4,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	117,7	110,7	0,3
Ohangaron	289,6	115,0	0,7
Bekobod	49,2	110,3	0,1
Bo‘stonliq	898,4	111,5	2,2
Bo‘ka	181,0	110,1	0,5
Quy Chirchiq	111,1	142,3	0,3
Zangiota	7 748,3	114,0	19,4
Yuqori Chirchiq	1 075,0	109,3	2,7
Qibray	6 344,3	121,3	15,9
Parkent	184,6	110,3	0,5
Piskent	273,6	103,4	0,7
O‘rta Chirchiq	430,0	90,5	1,1
Chinoz	1 268,9	103,4	3,2
Yangiyo‘l	669,4	113,1	1,7
Toshkent	4 233,2	111,8	10,5
Yashirin iqtisodiyot	6 242,2	112,4	15,5

Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida Zangiota, Qibray, Toshkent tumanlari, Chirchiq, Ohangaron, Yangiyo‘l shaharlari ulushi boshqa hududlarga nisbatan yuqoridir.


3. Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi

2025- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 697** tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **10** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 687** tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 11 **780,1** mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan **14,4** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **78,7** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi eng yuqori o'sish sur'ati Yuqori Chirchiq (**111,1** %), Parkent (**134,9** %) va Bo'stonliq (**116,7** %) tumanlari hamda Chirchiq (**115,5** %) shahrida kuzatildi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



4. Tushuntirishlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvini va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

VIII. TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI


2025- yil yanvar-sentabr

1. Tashqi savdo aylanmasi
2. Eksport hajmi
3. Import hajmi
4. Tushuntirishlar

1. Tashqi savdo aylanmasi

2025- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **5 061,0** mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan **805,2** mln AQSH dollariga yoki **18,9 %** ga ko‘paydi.

Tashqi savdo aylanmasi
(mln AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi **1 527,7** mln AQSH dollariga (2024- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **5,1 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **3 533,3** mln AQSH dollariga (26,1 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **2 005,6** mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Toshkent viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
(mln AQSH dollari)

Davlatlar	2024-y.	2025-y.
Xitoy	1 197,4	1 604,1
Rossiya Federatsiyasi	1 097,3	1 239,5
Qozog‘iston	561,6	571,3
Turkiya	272,1	268,8
Shveysariya	52,6	134,0
Tojikiston	76,7	133,5
Qirg‘iz Respublikasi	61,6	127,6
Belarussiya	94,6	112,1
Afg‘oniston	57,4	106,9
Germaniya	81,8	88,2
Singapur	67,6	56,4
Braziliya	155,5	51,0
Belgiya	29,0	49,1
Eron Islom Respublikasi	30,9	49,0
Hindiston	42,9	43,3
Italiya	68,6	38,3
Koreya Respublikasi	22,5	35,7
Xitoy, Gonkong MMR	2,7	24,9
Birlashgan Arab Amirlklari	12,1	24,5
Indoneziya	9,9	24,4


Toshkent viloyati jahonning **101** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (31,7%), Rossiya Federatsiyasi (24,5%), Qozog‘iston (11,3%), Turkiya (5,3%) va Shveysariya (2,6%) davlatlari bilan qayd etilgan.

2. Toshkent viloyatining eksporti tarkibi

Tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami eksport	1 453,5	1 527,7	104,6	105,1	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	165,0	216,7	104,8	131,4	11,5	14,2
Ichimliklar va tamaki	10,7	8,2	94,4	76,1	0,4	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	47,0	51,6	108,0	109,9	3,3	3,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	21,1	24,3	4,9 m.	115,0	1,5	1,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lar), yog'lar va mumlar	6,5	6,7	5,2 m.	103,3	0,5	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	72,8	91,2	129,0	125,2	5,1	6,0
Sanoat tovarlari	905,8	819,5	102,6	90,5	62,3	53,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	48,7	60,8	118,0	124,9	3,4	4,0
Turli xil tayyor buyumlar	168,8	184,3	90,8	109,2	11,7	12,1
Boshqa tovarlar	0,0	50,5	-	-	-	3,3
Xizmatlar	7,1	13,9	124,2	195,8	0,3	0,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,1 %** ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (**53,6 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**14,2 %**), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**6,0 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**12,1 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (mln AQSH dollari)



2025- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya Federatsiyasi (32,1 %), Xitoy (24,2 %), Turkiya (8,5 %), Qozog'iston (8,4 %), Afg'oniston (6,7 %), Tojikiston (2,9 %), Qirg'iz Respublikasi (2,3 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **85,1 %** ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida **210,3** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2024- yilning mos davriga nisbatan **172,6 %** ga yoki **88,5** ming tonnaga ko'paydi.

Meva va sabzavotlar eksporti

	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollari	Hajmiga nisbatan, o'sish sur'ati
Jami	210 321,9	142 088,4	166,3
Uzum	13 998,2	11 678,2	174,3
Qurutilgan uzum	6 762,7	6 251,8	2,2 m.
Piyoz	31 972,9	8 359,1	189,2
Qovun (<i>shu jumladan tarvuz</i>)	12 879,9	2 987,3	4,8 m.
O'rik	6 689,3	4 596,0	137,8
Boshqa meva va sabzavotlar	138 018,9	108 216,0	160,1

2025- yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **142,1** mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan **166,3** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **9,3** % ni tashkil etdi.

3. Toshkent viloyatining importi


2025- yilning yanvar-sentabr oyida import hajmi **3 533,3** mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan **26,1** % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (26,9%), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,8%) hamda sanoat mahsulotlari (14,1%) hisobiga to'g'ri keldi.

Toshkent viloyatining importi tarkibi

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami import	2 802,2	3 533,3	98,8	126,1	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	564,9	451,4	116,4	79,9	20,2	12,8
Ichimliklar va tamaki	6,9	2,7	153,0	38,6	0,2	0,1
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idantashqari	395,6	496,9	99,0	125,6	14,2	14,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	298,4	343,4	147,2	115,1	10,7	9,7
Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar	68,4	109,1	114,7	159,6	2,4	3,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	262,3	346,5	90,7	132,1	9,3	9,8
Sanoat tovarlari	395,4	497,4	87,0	125,8	14,1	14,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	705,2	949,6	80,8	134,7	25,2	26,9
Turli xil tayyor buyumlar	52,4	76,6	79,2	146,1	1,8	2,2
Boshqa tovarlar	46,4	239,6	72,9 m.	5,2 m.	1,7	6,7
Xizmatlar	6,3	20,1	194,1	3,2 m.	0,2	0,6

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **717,2** mln AQSH dollariga ko'paydi va **3 513,2** mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **20,1** mln AQSH dollariga yetdi.

Toshkent viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln AQSH dollari)



2025- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyati **90** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya Federatsiyasi (21,2 %), Xitoy (34,9 %), Qozog'iston (12,5 %), Turkiya (3,9 %), Qirg'iz Respublikasi (2,6 %), Shveysariya (3,7 %) va Belarussiya (2,7 %) jami importning **85,1** % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **20,1** mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining **0,6** % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **3,2 m.** oshgan..

4. Tushuntirishlar

Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

IX. KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI

2025- yil yanvar-sentabr

1. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni tahlili
2. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
3. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
4. Kichik biznesning hajmi va tarmoqlardagi ulushi
5. Kichik tadbirkorlik to'g'risidagi statistika ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

1. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni tahlili

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Ro'yxatga olingan kichik korxonalar va mikrofirmalar 2025- yilning 1- oktabr holatiga **58248** tani tashkil etdi.

2025- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) soni jami **38471** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **6367** tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik va mikrofirmalarning eng ko'pi Zangiota tumanida – **4736** tani (*jamiga nisbatan 12,3 %*), Qibray tumanida – **3413** tani (*8,9 %*), Toshkent tumanida – **2812** tani (*7,3 %*) tashkil etdi.


2. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, **38 850** mingta faol tijorat korxonalaridan **31 953** tasi (*jamiga nisbatan 82,2 %*) mas'uliyati cheklangan jamiyatlar bo'lib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.

Xususiy korxonalar **3373** tani (*8,7 %*), aksiyadorlik jamiyati **46** tani (*0,1 %*), oilaviy korxonalar **3 296** tani (*8,5 %*) tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	31 953	82,2
Xususiy korxonalar	3 373	8,7
Oilaviy korxonalar	3 296	8,5
Aksiyadorlik jamiyati	46	0,1
Boshqalar	182	0,5

3. Yangi tashkil etilgan kichik korxonava mikrofirmalarning sohalar kesimida soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, buning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

4. Kichik biznesning hajmi va tarmoqlardagi ulushi

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

